

SUN'IY INTELLEKT YORDAMIDA XORIJIY TIL O'RGANISH SAMARADORLIGI

O'rolova Sevinch Shovkat qizi

O'zDJTU Filologiya va tillarni o'qitish (koreys tili) talabasi

Annotatsiya. Ushbu maqolada sun'iy intellekt texnologiyalarining xorijiy tillarni o'rganish jarayonidagi o'rni va samaradorligi tahlil qilinadi. Bugungi kundagi zamonaviy ta'lim tizimida turli xil AI vositalari orqali o'rganish o'quvchilarda individual yondashuvning shakllanishi, mustaqil ta'lim olish imkoniyatlarini kengaytirishi va til o'rganish jarayonini yanada interaktiv, qiziqarli qilishga xizmat qilishi yoritilgan.

Kalit so'zlar: sun'iy intellekt, xorijiy til, til o'rganish, innovatsiya, chatbotlar, interektiv o'qitish, ta'lim texnologiyalari.

Abstract. this article explores the role and effectiveness of artificial intelligence (AI) technologies in the field of foreign language education. The integration of AI tools into contemporary education enables personalized learning experiences, enhances independent study skills and makes the language learning process more interactive and engaging.

Keywords: artificial intelligence, foreign language, language education, innovation, chatbots, interactive teaching, educational technology.

Аннотация: В статье рассматривается роль и эффективность технологий искусственного интеллекта в процессе изучения иностранных языков. Использование инструментов ИИ в современной системе образования обеспечивает индивидуальный подход, расширяет возможности самостоятельного обучения и делает процесс изучения языка более интерактивным и увлекательным.

Ключевые слова: искусственный интеллект, изучение иностранных языков, обучение языкам, инновации, чат-боты, интерактивное обучение, образовательные технологии.

Kirish. Insoniyat tarixida til o'rganish hozirgidek tezkor, qulay va samarali bo'lmagan. Bir necha o'n yillar oldin chet tillarini o'rganish deganda ko'z oldimizga yillab davom etadigan zerikarli grammatik mashqlar, qalin lug'atlar hamda turli repetitorlarga investitsiya qilishni talab qilgan bo'lsa, hozirda jadal bilan rivojlanib kelayotgan sun'iy intellekt bu vaziyatni butunlay o'zgartirib yubordi. Endilikda, murakkab raqamli va kognitiv texnologiyalar nafaqat bizga yo'l ko'rsatmoqda, balki har bir o'quvchi uchun individual ta'lim muhitini yaratmoqda.

Asosiy qism. Microsoft kompaniyasi rahbari Satya Nadella 2023-yil "Microsoft Ignite" konferensiyasida ta'kidlaganidek, sun'iy intellekt ta'limdagi tengsizlikni yo'q qiluvchi eng kuchli vositaga aylandi. Eng samarali jihati, texnologiya tufayli xorijiy til o'rganish endi faqat imtiyozli qatlam uchun emas, balki qo'lida smartfoni bor har bir inson uchun shaxsiy va bilimdon repetitor taqdim eta oladi. Satya Nadellaning bir qancha intervyularida shunday so'zlarni aytgan: "Mening orzum, yer yuzidagi 8 milliard aholining har biri o'z shaxsiy AI-repetitoriga (AI-tutor) ega bo'lsin." [2.2023].

Xorijiy tillarni o'rganishdagi to'siqlardan biri – jonli muloqotning sustligidir. Zamonaviy intellektual chatbotlar (masalan, ChatGPT, ELSA Speak, Claude) bu muammoni bartaraf qilishga yordam beradi. Ushbu texnologiyalar foydalanuvchi nutqini

eshitib soniya ichida tahlil qilib beradi[4.2024]. Natijada bunday tezkor aloqa o'quvchiga o'z xatolari ustida o'sha vaqtni o'zida ishlash imkonini yaratadi, bu esa o'sha tilning talaffuzini (native) tabiiy chiqishiga xizmat qiladi:

- So'zlashuv amaliyoti: chatbotlar bilan suhbat qurish orqali o'quvchi istalgan mavzuda real vaqt tizimida muloqot qilishi mumkin.

- Psixologik erkinlik hissi: HolonIQ tahliliy hisoboti (2024) shuni ko'rsatadiki, o'quvchilar chatbot (AI) bilan muloqotda o'zlarini erkinroq his qiladi va ulardagi "xato qilish qo'rquvi"ni yo'q qolishga yordam beradi. Buning natijasida nutq amaliyoti jonli darslarga qaraganda 3 baravar ko'proq amalga oshiriladi [1.2024].

Sun'iy intellekt samaradorligi shunchaki nazariya emas, balki aniq statistik faktlar bilan isbotlanayotgan haqiqatdir:

1. Vaqtdan yutish: AI platformasidagi 34 soatlik mashg'ulot ta'lim muassasalaridagi 130 soatlik akademik kurs beradigan natijani beradi. Bu ta'lim tezligini qariyb 4 baravarga oshirishini anglatadi[3.2023].

2. Xotira va o'zlashtirish: Intellekt formulalar hamda interektiv o'yinlar asosida so'z,lug'at yodlagan talabalar, oddiy kitobdan foydalanganlarga qaraganda yangi so'zlarni 40% ga ko'proq sifatli eslab qo'lishi kuzatilmoqda [5,34-36-b].

Xulosa. Sun'iy intellekt chatbotlar til o'rganish sohasida shunchaki yordamchi emas, balki haqiqiy tezlashtiruvchi (accelerator) bo'lib xizmat qilmoqda.u til o'rganishdagi to'siqlarni olib tashlab, ta'limni hamma uchun ochiq va qiziqarli sayohatga aylantirmoqda. Texnologiyalar va inson intellektining bunday uyg'unligi yaqin kelajakda har bir insonning ko'p tilli (polyglot) bo'lib yetishishiga zamin yaratadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. HolonIQ. (2024). State of Generative AI in Education 2024: Language learning transformation. HolonIQ Global Analytics.
2. Nadella, S. (2023). Keynote Speech at Microsoft Ignite 2023. Microsoft News Center.
3. Vesselinov, R., & Grego, J. (2023). The Duolingo Efficacy Study: Efficiency Comparison with University Courses. Duolingo Research.
4. Walker, J. (2024). The Rise of AI in Language Acquisition. Forbes Education.
5. Zhang, L. (2023). The Efficacy of AI-based Language Learning Applications. Computer Assisted Language Learning (CALL). 34-36b